

YAGONA IJTIMOIY TO‘LOVLAR VA MAJBURIY SUG‘URTA BADALLARI

Flora Shanazarova Xabibullaevna

Toshkent turizm va mehmonxona menejeri texnikumi

Yashnobod tumani

Iqtisodiy fanlar

+998998270868

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunga kelib mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari to‘liq amal qila boshladi. Bozor iqtisodiyotining samarali ishlashini va uning rivojlanganlik darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri uning infratuzilmasi shakllanganligi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri sug‘urta sohasi hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ko‘rishimiz mumkinki, sug‘urta sohasi iqtisodiyot rivojlanishining bir maromda borishini ta‘minlovchi sohalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, sug‘urta iqtisodiyotning rivojlanishi uchun salmoqli investitsiya kapitalini jamlashtiruvchi va iqtisodiyotga kirituvchi strategik ahamiyatga ega bo‘g‘inlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Mamlakatimizda bugungi kunda sug‘urta sohasining rivojlanishiga katta ahamiyat berilmoqda. Sug‘urta sohasini taraqqiy toptirish maqsadida mamlakatimiz Prezidentining bir qancha qarorlari qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-618- sonli Qarori asosida O‘zbekiston sug‘urta tizimining 2010-yilgacha bo‘lgan rivojlanish yo‘nalishlari belgilab berildi.

Kalit so‘zlar: *bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday munosabatlarda xavf-xatar, risk va qaltisliklarning mavjudligi; sug‘urta kompaniyalari tomonidan favqulodda holat natijasida korxonaning faoliyati to‘xtab qolmasligi va faoliyatini davom ettirishini ta‘minlanishi; mamlakat iqtisodiyotiga katta miqdordagi investitsiyalarni kiritishi; hayot sug‘urtasi orqali aholining ijtimoiy himoyasini bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida ta‘minlashi; mamlakat umumiy iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanishi va boshqalar.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng,o‘z iqtisodiyotining rivojlanish yo‘nalishlarini bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida belgilab oldi. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning bosqichma-bosqich o‘tish yo‘li tanlandi. Mazkur jarayonda iqtisodiyotning sohalarini erkinlashtirish, davlat

tasarrufidan chiqarishga katta e'tibor berildi. Shu o'rinda sug'urta sohasi ham bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining tarkibiy ajralmas qismi sifa-tida davlat monopoliyasidan chiqarildi va erkinlashtirildi. Hozirgi kunda sug'urta faoliyati mamlakatimizda jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan sohalardan biriga aylandi. O'zbekistonda sug'urta faoliyatining jadal rivojlanish bosqichlari asosan 1997-yildan "O'zagrosug'urta" DASK, "O'zbekinvest" EIMSK, "Kafolat" DASK kabi yirik sug'urta kompaniyalarining tashkil etilishi bilan boshlandi. 1998-yil 8-iyuldag'i O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan Moliya vazirligi huzurida Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi tashkil etildi. Mazkur inspeksianing tashkil etilishi O'zbekiston sug'urta bozorining tartibga solinishiga va sug'urtalanuvchilar manfaatlarini davlat tomonidan himoyalash mexanizmining vujudga kelishiga olib keldi. 2002-yil 5-aprelda "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqdi. Mazkur Qonunga asosan mamlakatimizda sug'urta sohasi ikki tarmoqqa ajratildi. Bular umumiy sug'urta va hayot sug'urtasi tarmoqlaridir. Umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat yurituvchi sug'urta kompaniyasi uchun hayot sug'urtasi tarmog'ida faoliyat yuritishi taqiqlandi va aksincha, hayot sug'urtasi tarmog'ida faoliyat yurituvchi sug'urta tarmog'idagi sug'urta kompaniyasining umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat yuritishi taqiqlandi. Sug'urta tashkiloti u yoki bu tarmoqda faoliyat yuritishi uchun maxsus vakolatli davlat organidan berilgan litsenziyaga ega bo'lishi zarur. Hozirda O'zbekistonda maxsus vakolatli davlat organi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisoblanadi. Bundan tashqari, Moliya vazirligi sug'urta tashkilotlarini nazorat qilish ishlarini ham amalga oshiradi. Ushbu Qonunda sug'urta faoliyatining professional ishtirokchilarini ham belgilanib, ular sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilarini va boshqa sug'urta bozorida ishtirok etuvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Sug'urta vositachilarini sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri va sug'urta agenti hisoblanadi. Bulardan sug'urtalovchi va sug'urta brokerlari o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun Moliya vazirligining litsenziyasiga ega bo'lishi zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Ta'kidlab o'tish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-618-sonli Qarori asosida sug'urta bozorining yangi professional ishtirokchilarining qonuniy bazasi shakllantirildi. Bularga ajaster, syurveyer, aktuariy va assistanslarni misol qilib keltirish mumkin. Adjaster yoki adjaster tashkiloti – bu sug'urtalovchining topshirig'i bo'yicha quyidagi xizmatlarni ko'rsatadigan tegishli ravishda jismoniy yoki yuridik shaxs: • sug'urta hodisasi yuz bergandan keyin sug'urta obyektini ko'zdan kechirish va tekshirish; • sug'urta

hodisasining holatlari va risk majburiyatlarini tahlil qilish; • sug‘urta obyekti shikastlanishi sabablarini va sug‘urta hodisasi mavjudligini aniqlash; • sug‘urta hodisasi mavjud bo‘lgan taqdirda sug‘urta hodisasi oqibatida paydo bo‘lgan shikastlanish darjasи va zarar miqdorini aniqlash; • sug‘urtalovchining majburiyatlaridan kelib chiqib to‘lanishi kerak bo‘lgan sug‘urta tovoni summasini aniqlash; • sug‘urtalovchi uchun sug‘urta hodisasi bo‘yicha ekspert xulosasi tuzish. Aktuariy yoki aktuar tashkilot – bu tegishli ravishda quyidagilarni o‘z ichiga oladigan aktuar xizmatlar ko‘rsatuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs: • sug‘urta hodisasi yuz berishining matematik jihatdan muqarrarligi hisobini amalga oshirish, ham alohida risk guruhlarida, ham umuman jami sug‘urta bo‘yicha zarar yetkazish oqibatlari og‘irligi chastotalari va darajasini aniqlash; • sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) zarur sug‘urta zaxiralari va fondlarini matematik asoslash va hisoblash, ularni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish; • sug‘urtalovchi tomonidan investitsiyalar sifatida yig‘ilgan badallardan foydalanishda kapital qo‘yish normasi va netto-stavka miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlikni belgilash, bu tarif stavkalarini investitsiya daromadi summasiga kamaytirishga ko‘maklashadi; • sug‘urtalash jarayonini tashkil etish uchun zarur xarajatlarni asoslash va sug‘urta xizmatlari tannarxini hisoblash; • sug‘urtalashning (qayta sug‘urtalashning) har bir turi bo‘yicha tarif stavkalarini sug‘urtalovchilar uchun ularni o‘tkazishning uzoq muddatli va qisqa muddatli xarakterini hisobga olgan holda belgilash; • sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) investitsiya faoliyati natijalarini aktuar hisoblashdan foydalangan holda baholash; • sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) daromadlarini sug‘urtalash (qayta sug‘urtalash) ning har xil turlari bo‘yicha rejalashtirish. Assistans xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar sug‘urtalash shartnomasi doirasida sug‘urtalanuvchilarga (sug‘urtalangan shaxslarga, foyda ko‘rvuchilarga) hamda sug‘urtalovchilarga texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko‘rsatadilar, shuningdek, ularga moliyaviy yordam ko‘rsatadilar. Sug‘urta syurveyeri – quyidagilar bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs: • sug‘urta shartnomasi tuzilgungacha sug‘urta obyektini ko‘zdan kechirish va tekshirish; • barcha faktlarni va risk holatlarini tahlil qilish, sug‘urta shartnomasi tuzilgungacha risk darajasini aniqlash; • sug‘urtalashning tekshirilayotgan obyekti bo‘yicha ekspert xulosasi tuzish. Mamlakatimizda faoliyat yurituvchi sug‘urta tashkilotlarining barqaror faoliyat yuritishi va sug‘urtalanuvchilarning manfaatlarini himoyalash maqsadida eng kam ustav kapitali miqdorlari belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-618-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Sug‘urta bozorining professional qatnashchilari to‘g‘risida”gi nizomga asosan eng kam ustav kapitali miqdori – umumiy sug‘urtalash tarmog‘ida faoliyatni amalga oshiradigan

sug‘urtalovchilar uchun – 500 ming AQSh dollariga teng bo‘lgan summani; – hayotni sug‘urtalash tarmog‘ida faoliyatni amalga oshiradigan sug‘urtalovchilar uchun – 750 ming AQSh dollariga teng bo‘lgan summani; – majburiy sug‘urtalash bo‘yicha faoliyatni amalga oshiradigan sug‘urtalovchilar uchun – 1000 ming AQSh dollariga teng bo‘lgan summani; – faqat qayta sug‘urtalash bo‘yicha faoliyatni amalga oshiradigan sug‘urtalovchilar uchun – 3000 ming AQSh dollariga teng bo‘lgan summani tashkil etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Investitsiya siyosatini amalga oshirishda bozor munosabatlarini mos dastaklardan foydalanish, ya‘ni investitsion jarayon qatnashchilarining huquq va majburiyatlarini belgilab berish, mamlakatda investorlar uchun to‘laqonli raqobatni ta‘minlash, moddiy va aqliy boyliklarni boshqarishda batamom erkin harakat va shunga tenglashtirilgan tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Jumladan 1993 yilning 6 maydagি qabul qilingan "Sug‘urta to‘g‘risidalgi qonunning 10 - moddasi quyidagicha ko‘rsatib o‘tilgan edi - — Sugurtalovchilarda qiymati to‘langan ustav kapitalining va sug‘urta zahiralarining mavjud bo‘lishi, shuningde qayta sug‘urta qilish tizimi sug‘urtalovchilar moliyaviy barqarorligining negizi hisoblanadi|. Ushbu qonunning 11-moddasida esa «Sug‘urta tashkilotlari o‘z moliyaviy ahvollarini barqaror saqlab turish maqsadida investitsiyaga berishga yoi sug‘urta zahiralari va o‘zga mablag’lardan boshqa yol bilan foydalanishga haqlidir. Tijorat faoliyatini qo‘shma va boshqa xil ishlab chiqarish hamda tijorat tuzilmalarini tashkil qilishda qatnashish yo‘li bilan ham amalga oshirish mumkin| deb belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekbrda qabul qilingan |Investitsiya faoliyati to‘g‘risidalgi qonunida investitsiya faoliyati hamda investitsiya faoliyati bilan shug‘ullanish tartiblari ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu qonunning 4-moddasida investitsiyalarni amalga oshirish shakllari haqida to‘xtalib o‘tilgan, ya‘ni investorlar investitsiyalarni quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirishlari mumkin: - yuridik shaxs tuzish yoi ularning ustav jamg‘armalarida (kapitallarida) ulushli ishtirok etish, jumladan mol-mulkni yoki aksiyalarni olish; - qimmatli qog’ozlar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini olish; - konsessiyalari, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo‘lgan konsessiyalarni olish; - mulk huquqini, shu jumladan ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda savdo va xizmat ko‘rsatish sohalari ob‘ektlariga, turar joylarga mulk huquqini, shuningdek yerga hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqini qonun hujjaligiga muvofiq olish. Investorlar investitsiyalarni qonun hujjaligiga zid bo‘lmagan boshqa shakllarda ham amalga oshirishlari mumkin. Investor investitsiyalash maqsadi, yo‘nalishi, turi va hajmini mustaqil ravishda belgilaydi, buni amalga oshirish uchun shartnoma asosida, qoida tariqasida, tanlov savdosini o‘tkazish yo‘li bilan yuridik va jismoniy shaxslarni investitsiya faoliyati ishtirokchilari sifatida

jalb etadi. Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, investor, o'ziga zarur bo'lgan mol-mulkni yuridik va jismoniy shaxslardan o'zaro kelishuv asosida belgilanadigan shartlarda hajmi va nomenlaturasini cheklamagan tarzda olishga haqli. Shu bilan bir qatorda investor qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumin. Masalan, «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonunning 14-moddasida investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi belgilangan: - investitsiya faoliyatining qonunchili negizi takomillashtirish; - soliq to'lovchilar va soliq solish ob'ektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqalashtiruvchi soliq tizimini qo'llash; - asosiy fondlarni jadal amortizatsiya qilish; - normalar, qoidalar va standartlarni belgilash; - monopoliyaga qarshi choralarini qo'llash; - kredit siyosati va narx belgilash siyosatini o'tkazish; - erga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash; - investitsiya loyihamalarini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilash; - O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan ivesititsiya loyihamalarining amalga oshirilishi monitoringini yuritish; - investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda ham amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009 yil 3 iyuldagи 68-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Nizomda sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyatining ob'ektlari quyidagicha etib belgilangan.

XULOSA

Rivojlangan mamlakatlarning investitsiya bozorlarida sug'urta kompaniyalarining olgan daromadlari ayrim sug'urtalash turlari bo'yicha sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishda yuzaga kelgan zararlarni qoplash imkoniyatini bermoqda. Shu nuqtai nazardan sug'urta tashkiloti investitsiya faoliyatini samarali olib borishi uning daromad manbalari tarkibida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., Adolat. 2014. 76 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, -T.: —Adolat||, 2002.-496 b.
3. O'zbekiston Respublikasining —Sug'urta faoliyati to'g'risida||gi Qonuni. O'zbekiston Respublikaci qonun hujjatlapi to'plami - T.: 2002 y. N358 –II.
4. O'zbekiston Respublikacining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kipitish haqida" Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami -T.: 2007 yil, 41-son, 405-modda.
5. O'zbekiston Respublikasining —Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida||gi Qonun. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2009 yil, 16-son, 197-modda.